



## JAHON ADABIYOTINI O'QITISHDA VIRTUAL ADABIY TOPSHIRIQLAR YARATISHNING ILMYI-METODIK ASOSLARI

**Davlatboyeva Dildora**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti  
mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada maktab darsliklarida jahon adabiyotini o'qitishda virtual topshiriqlardan foydalanishning samaralari xususida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *virtual adabiy topshiriqlar, interaktivlik, kreativlik va tanqidiy fikrlash, baholash va fikr bildirish, WordWall, Kahood, Gammaapp, Educaplay platformalari.*

**Аннотация.** *В статье рассматриваются преимущества использования виртуальных заданий при преподавании мировой литературы в школьных учебниках.*

**Ключевые слова:** *виртуальные литературные задания, интерактивность, креативность и критическое мышление, оценка и обратная связь, платформы WordWall, Kahoot, Gammaapp, Educaplay.*

**Annotation.** *This article discusses the effectiveness of using virtual assignments in teaching world literature in school textbooks.*

**Key words:** *virtual literary assignments, interactivity, creativity and critical thinking, evaluation and feedback, WordWall, Kahood, Gammaapp, Educaplay platforms.*

“Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi”, - dedi Shavkat Mirziyoyev<sup>1</sup>. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri. Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligini ta'kidladi. Yangi metodikani samarali yo'lga qo'yish uchun barcha maktab o'qituvchilari xorijiy mutaxassislar ishtirokida qayta o'qitilib, malaka oshirishdi. Eng muhimi bu jarayonga pedagogika yo'nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilandi. Pedagogika ilmi va amaliyotida ko'p zamonlardan beri ta'lim tarbiyadan ustuvor sanalib kelinayotganini talabalar o'zlashtirayotgan bilimlari asnosida payqagan bo'lishlari kerak. Endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko'ra mustaqil fikrlashga yo'naltirish va ta'lim jarayonida o'quvchilarni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko'tarishning yangi yangi yo'llari qidirilmoqda. O'qitishning asosiy ashyolari bo'lmish darslik, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri hamda qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ham ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar

<sup>1</sup> “Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish” masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqidan, SH.Mirziyoyev. 2.11.2020 yil.



tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirish o'rniga ma'naviy sifatlarning yetakchiligi, bola tuyg'ularining injaligi, uning ko'ngil istaklari, ma'naviyat shakllantirishda milliy an'analarga tayanish lozimligiga diqqat qaratilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, avlodlarni milliy qadriyatlar asosida ma'nani sog'lom qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rnini beqiyos. Lekin badiiy asardagi kitobxon shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlari, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg'ash, ularning ko'ngilni tozalashga xizmat qiladiganlarini topib, o'z tabiatiga singdirish, shakllanayotgan shaxsda osonlik bilan kechadigan jarayon emas. Ta'lim-tarbiya tizimida bu kabi murakkab va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirish "Adabiyot" deb nomlanuvchi fan va o'z kasbini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigan o'qituvchining zimmasida bo'ladi. Gap jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish haqida ketganda bu mas'uliyat ikki barobar ortadi.

O'qituvchi adib haqida gapirar ekan, uning hayotidagi u yoki bu voqeani shunchaki sodir bo'lgan fakt sifatida emas, balki bo'lajak sanatkorning ijodiy qiyofasini belgilaydigan omil sifatida yoki biror asarning bitilishiga turtki sifatida talqin etsa maqsadga muvofiqdir. Bu sinf o'quvchilari bir yozuvchi uslubining boshqasidan farqli ekanligi sabablarini adiblar voyaga yetgan muhitdan, ularning xarakter xususiyatlaridan qidirishni o'rganishlari kerak. Ernest Heminguey hayoti va ijodini o'rgatishda ham shu jihatlarni e'tiborga olish lozim. Maktab darsligining 7-sinfida berilgan "Ernest Heminguey hayoti va ijodi. "Chol va dengiz" qissasi" ham shu jihatlarni hisobga olgan holda darslikka kiritilgan. Ijodkorning hayoti va ijodiga chuqur to'xtalib o'tilmagan. "Chol va dengiz" qissasi va uning tahliliga esa alohida dars ajratilgan. 7-sinf o'quvchilarida qissa o'zining rang-barangligi, asar qahramonlari hayotining qiziqarli va shiddatkorligi bilan o'ziga jalb etadi.

Yozuvchi va shoirlarning asarlarida har bir tarixiy davr ruhi, xalqning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ma'naviy boyliklar sifatida o'quvchi qalbiga yetib boradi, u yerda puxta o'rnashib, muhrlanib qoladi va o'z tarbiyaviy ta'sirini ko'rsatib turadi. Biografik ma'lumotlar o'z mazmuni bilan yoshlarni milliy ma'naviyatni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi<sup>2</sup>. Adabiyot fanlarida yozuvchi tarjimayi hollarini o'rganish xususida A.Zunnunov, R.Usmonov, Q.Yo'ldoshev kabi olimlar so'z yuritganlar, biografik ma'lumotlar mazmuni qanday bo'lishi kerakligi haqida to'xtalib o'tganlar. Metodik adabiyotlarda adib hayotidagi muhim voqealar ko'pincha bir-ikki voqea, aksariyat hollarda uning shaxsi qanday kamol topayotganini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish maqsadini ko'zda tutadi deb

<sup>2</sup> Husanboyeva Q, Niyozmetova R. "Adabiyot o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Toshkent 2018. 292-bet.



ta'kidlanadi<sup>3</sup>. Bundan bilish mumkinki, adiblarning tarjimai holidagi bu kabi ma'lumotlar tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Heminguey nasri aniq, kam sonli bezaklar bilan tasvirlangan va keng kitobxonlar olamiga taqdim etilgan. Ushbu muallif matnining boyligi uning aniq tavsiflari va otashin mulohazalaridir. Mavzular va uslublar tufayli Heminguey har doim "erkaklarcha" uslubni namoyish etgan yozuvchi sifatida tanilgan. Uning armiyadagi vaqti, shuningdek, o'z davridagi muassasalar va zamonaviy anjumanlardan noroziligi uni an'ana bilan tanaffus qilishga undagan deb hisoblangan. Shunday qilib u ko'proq hazm bo'ladigan adabiyotni yaratishga kirishdi. Oddiyroq matnlarni yaratish haqiqati ular ta'sirga ega emasligini anglatmaydi. Bundan tashqari, ushbu element qisqa hikoyalar yozishni boshlagan Hemingueyda juda mavjudligini ta'kidlash kerak.

O'quvchi yangi mavzuni o'rganishga kirishar ekan, o'qituvchi oldida har doim savol tug'iladi, qaysi didaktik materialdan foydalanish kerak, o'quv vazifalarini qaysi usullar bilan samarali yechish mumkin? Har bir mashg'ulot turning pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim. Metodning tanlanishi talim va tarbiyaning didaktik maqsadlari bilan aniqlanadi. O'qituvchi yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu vaqt va didaktik maqsadlarni muvozanatlashtirish sanaladi. Natijada esa o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini taminlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar obyektiv voqelikka bo'lgan bilimlarni chuqurlashtiradi va mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lim darajada bilish va nazariy qiziqishni oshirishga, mustaqil faoliyatni faollashtirishga olib keladi. Pedagogikada ananaviy metodlarni tanlash mezonlari ishlab chiqilgan. Lekin talimda interfaol metodlarni tanlash mezoni – ularning talim va tarbiyani rivojlantirish masalalariga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi. Chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari har xil sanaladi. Metod tanlashning yana bir mezoni bu uning talim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod o'qituvchining darsda harakatlanish vositasi sifatida qaraladi. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi ijobiy o'zlashtirishga va yangi mavzuni mustahkamlashga imkon tug'diradi.

<sup>3</sup> Zunnunov A. O'zbek maktablarida adabiyot o'qitish metodikasi tarixidan ocherklar. – Toshkent.: "O'qituvchi", 1980 y. 191-bet.



Bilamizki bugungi yoshlar kuchli axborot oqimi ostida voyaga yetmoqda. Fan-texnika rivojlangan, axborotlashgan jamiyat bag'rida ulg'ayib, ularning to'liq imkoniyatlaridan xabardor yoshlarning dunyoqarashi bundan o'n yillar oldingi yoshlarning estetik talablaridan tubdan farq qiladi. Bugun tezkor rivojlanishlar ichida voyaga yetayotgan bola kutubxonalariga kirib o'tirmasdan yuqori tezlik va imkoniyatlarga ega bo'lgan qo'l telefoni va internetdan foydalanishni va zarur malumotlarni tez va oson qulay holda olishni maqul ko'rmoqda. Bu esa o'qituvchining, xususan adabiyot o'qituvchisining zimmasiga katta masuliyat yuklaydi. Ana shunday sharoitda o'quvchilar qalbida kitobga, adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish juda katta mehnatni talab qiladi. Asar qanchalik yaxshi yozilgan bo'lmasin, uni o'quvchiga yetkazib berish talabga javob bermasa, bu asarni bir uyum qog'ozdan farqi yo'q<sup>4</sup>. B.To'xliyev takidlaganidek, adabiyot fanini yaxshi o'rgatish va o'qitish uchun har bir adabiyot o'qituvchisi masuldir, adabiyot o'qituvchisi sanatkor bo'lishi kerak. Jahon adabiyotini o'qitishda virtual adabiy topshiriqlar yaratish, o'quvchilarning adabiy bilimlarini chuqurlashtirish, kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Virtual adabiy topshiriqlar, internet-resurslari va raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv o'quvchilarga adabiy asarlarni turli usullar orqali o'rganishga imkon yaratadi. Virtual adabiy topshiriqlar – bu o'quvchilarga adabiy asarlarni turli shakllarda o'rganish imkoniyatini beradigan, interaktiv va texnologik vositalar yordamida ishlab chiqilgan topshiriqlardir. Virtual topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishi mumkin. Masalan, matnni tahlil qilish yoki adabiy asarlarni zamonaviy shaklda ifodalash (video, audio, grafika) orqali o'quvchilar yangi uslublarda o'z fikrlarini ifoda etishadi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalari turlicha bo'lishi sababli, virtual topshiriqlarni yaratishda differentsiatsiya qilish ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, ayniqsa yosh o'quvchilarda, ta'limni yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalari turlicha bo'lishi sababli, virtual topshiriqlarni yaratishda differentsiatsiya qilish muhimdir<sup>5</sup>. Bu o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va motivatsiyasiga mos keladigan topshiriqlarni ishlab chiqish imkonini beradi. WordWall, Kahood, Gammaapp, Educaplay kabi dasturlar orqali turli topshiriqlar yaratish imkoniyati mavjud. O'quvchilarga interaktiv darslarni o'tkazish, testlar va viktorinalar yaratish uchun onlayn platformalar va dasturlardan foydalanish mumkin. Bu platformalar

<sup>4</sup> To'xliyev B. adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

<sup>5</sup> G'ulomova D. Darslarni raqamlashtirish va o'qitish jarayonida virtual topshiriqlarni qo'llash. – Samarqand: Ta'lim resurslari.



o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, baholash va o'zaro fikr almashish imkoniyatini beradi. Video, audio, animatsiya va interaktiv kontentlarni qo'llash o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va adabiy asarlarni tushunishni osonlashtiradi. Masalan, adabiy asarlarning filmga aylantirilgan versiyalarini ko'rsatish yoki matni animatsion shaklda taqdim etish orqali o'quvchilarni yanada qiziqtirish mumkin. Virtual topshiriqlar orqali o'quvchilar o'qish jarayoniga yanada qiziqish bilan kirishadi, chunki ular interaktiv va ijodiy shaklda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. O'quvchilar turli adabiy asarlar bilan ishlash orqali tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va izlanish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z fikrlarini ijodiy tarzda ifodalashga va adabiy asarlarni yangi shakllarda tahlil qilishga o'rgatadi. Virtual topshiriqlar o'quvchilarga mustaqil ravishda ishlash, o'z bilimini tekshirish va rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Interaktiv o'qitish usuli talabalarga o'zingizni faqat tinglovchi sifatida emas, balki o'rganish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qilish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi. Jahon adabiyoti na'munalarini o'qitishda bu usuldan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligining yanada oshishiga olib keladi<sup>6</sup>. Ernest Seton-Tompsonning "Lobo", Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarlarini o'qitishda ham bir bu usuldan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qitishda multimedia vositalari, masalan, onlayn testlar, video materiallar, virtual muhokama guruhlar, interaktiv kartalar va dasturlarni qo'llash o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, o'quvchilarni videolarni tahlil qilish, ularni tartibga solish yoki o'zlarini yangi asar yaratishga chaqirish. Virtual texnologiyalar va interaktiv metodlarning qo'llanilishi o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni yaratishga imkon beradi, shu bilan birga, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish" masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqidan SH.Mirziyoyev 2.11.2020 y.
2. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. "Adabiyot o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Toshkent 2018.
3. Zunnunov A. O'zbek maktablarida adabiyot o'qitish metodikasi tarixidan ocherklar. – Toshkent.: "O'qituvchi", 1980 y.

<sup>6</sup> Mirzayeva S. Adabiy ta'lim metodikasi: jahon adabiyoti darslarini tashkil etish. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2020.



4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. G‘ulomova D. Darslarni raqamlashtirish va o‘qitish jarayonida virtual topshiriqlarni qo‘llash. – Samarqand: Ta’lim resurslari.
6. Mirzayeva S. Adabiy ta’lim metodikasi: jahon adabiyoti darslarini tashkil etish. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2020.
7. Saodat, I. Ko ‘k’ leksemasining etimologik tavsifi. O ‘zbekiston, 75.
8. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O ‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.

